

**”YASHIL IQTISODIYOT” ASOSIDA BARQAROR
RIVOJLANISHNI TA’MINLASH
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
AVTOMOBIL TRANSPORT MUHANDISLIGI FAKULTETI**

III bosqich talabasi

YANGIYEVA ISMIGUL ILHOMOVNA

Annotatsiya: Insonlar hayotida ko’plab ekologik , ijtimoiy va iqtisodiy muammolar hozirgi kunda sezilarli darajada o’smoqda. Ayniqsa atrof muhit holati, tabiiy resurslarga bo’lgan ehtiyojlar, aholi soni hamda iste’moli ortib bormoqda. Bu ishlab chiqarishning ko’payishi, chiqindilar, ya’ni poligonlar va hayot sifatining pasayishiga olib keladi. Bu esa dunyo hamjamiyati oldiga bir qancha ilmiy tadqiqot chora tadbirlarini ishlab chiqarishni yuzaga keltiradi.

Kalit so’zlar: barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik yondashuv, yashil o’sish, ijtimoiy barqarorlik, inson taraqqiyoti, sof texnologiya.

Kirish

Inson hayotida juda ko’plab ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar mavjud. Aholi soni va iste’moli ortib borishi natijasida, atrof-muhitni muhofaza qilishga yetarlicha e’tibor berilmayapdi. Bu esa o’z navbatida ishlab chiqarishning jadallashuvi, chiqindilar miqdori ortishi, yangi poligonlar ko’payishi va hayot sifatining pasayishiga sabab bo’lmoqda desak hecham mubolag’a bo’lmaydi.

O’zbekistonning 2030-yiligacha bo’lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta’minlashda barqaror rivojlanishga erishishda asosiy vosita hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarini o’zaro muvofiqlashtirish o’ta murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyatimiz uchun adolatga erishish va aholining kambag’al qismlariga maqsadli yordam ko’rsatish kabi yangi vazifalarni o’z zimmasiga oldi. Iqtisodiy va ekoloogik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta’siri qiymatini to’g’ri baholash zarurligi, yangi g’oyalar va yondashuvlarining shakllanishiga olib keladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari o’z navbatida avlodlar ichida va avlodlar o’rtasida tenglikni ta’minlash kabi masalalar yechimlarini dolzarbligini yanada oshirishni maqsad qildi.

Mamlakatimizda ”yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktabrda tasdiqlangan ”2019-2030-yillarda O’zbekiston Respublikasini ”yashil” iqtisodiyotiga o’tish strategiyasi” muhim dasturiy amallardan biri hisoblanadi. ”Yashil iqtisodiyot”ga o’tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan foydalangan oqilona foydalangan holda iste’mol qilish kiradi. 2030-yilgacha bo’lgan davrda

strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan 10 % ga kamayishi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining 100 % ga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanishini ta'minlash kutilmoqda. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.

Asosiy qism

Jamiyatda asta-sekinlik bilan tabiiy resurslarni rekreatsiya va ilmiy tadqiqot maqsadlari uchun asrab qolish zaruriyati to'g'risidagi g'oyalar, kelajak avlod oldida ekologik mas'uliyatga asoslangan ilmiy konsepsiyalar shakllanishiga olib keldi. Ushbu g'oyalarning amaliyotga tadbiqui barqaror rivojlanishni ta'minlash orqali hal etilishi zarur. Barqaror rivojlanish deyilganda, aholi ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini esa xavf ostiga qo'ymaslikka asoslangan rivojlanish tushuniladi.

Bu maqsadlarni amalga oshirishi uchun BMT 70-80-yillarda barqaror rivojlanish konsepsiyasini yaratdi. Uning negizida xom ashyo eksporti modeli o'rni bosishi kerak bo'lgan "yashil iqtisodiyot" rivojlanadi.

Yashil iqtisodiyot – bu tabiiy boyliklariga ta'sir qilmaydigan iqtisodiyot. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi resurslarni tejashni qo'llab-quvvatlash va tabiatga salbiy ta'sirni kamaytiradi. Inson hayoti sifatining o'sishi tabiiy kapitalning o'sishi bilan "birgalikda" mavjud. Bu "yashil o'sish" deyiladi. Barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi iqtisodiy yondashuv global miqyosda ijtimoiy barqarorlik va madaniy xilma-xillikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Ekologik yondashuv esa har qanday ekologik tizimlarning normal faoliyat yuritishni ta'minlashga hizmat qilishi zarur hisoblanadi.

Barqaror rivojlanishning ijtimoiy tarkibi insonga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy va madaniy tizimlarning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Ijtimoiy barqarorlikning muhim jihati ne'matlarni adolatli va oqilona taqsimlashdir. Inson taraqqiyoti konsepsiyasiga muvofiq inson taraqqiyot obyekti emas, balki uning subyekti sanaladi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi inson tanlovini kengaytirish asosiy g'oyalar va qarorlar qabul qilish, ularni amalga oshirish va bajarilishini nazorat qilish, jarayonida to'laqonli qatnashishi lozimligini nazarda tutadi.

Barqaror rivojlanishni ta'minlash cheklangan tabiiy muhitga aholi turmush darajasini oshirish va ishlab chiqarishni har tomonlama ko'kalamzorlashtirishni rag'batlantirish bilan birga "yashil iqtisodiyot"ning asosiy maqsadi hisoblanadi. Barqarorlikka erishish ko'p jihatdan iqtisodiyotni yashillashtirishga bog'liq ekanligi ahamiyat kasb etadi.

”Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o’sishini ta’minlash va investitsiyalar faolligini oshirish, atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarning barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo’naltirish zarur bo’ladi.

”Yashil iqtisodiyot”ni yuqoridagi yo’nalishlarda rivojlantirish mobaynida quyidagi vazifalarni hal etish maqsadga muvofiq bo’ladi:

- ”yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi bosh muammo energiya va resurslarni tejaydigan samarali texnologiyalar, muqobil energetikani rivojlantirishga qo’shimcha investitsiyalar yo’naltirish yoki ”yashil o’sish” sifatida soddalashtirish hisoblanadi;

- ”yashil iqtisodiyot”ga o’tish zarurligini ilmiy asoslashning murakkabligi, ekologik muammolarni prognozlashning yuqori darajada noaniqligi ushbu konsepsiyani tushunarli, soda tarzda tushuntirishda qiyinchiliklar tug’diradi. Jumladan, issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish muddati va darajasini pasaytirish bo’yicha yagona kelushuv mavjud emas. Issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish hajmi esa ortib bormoqda;

- ”yashil iqtisodiyot ” barqaror rivojlanish o’rnini bosa olmaydi, ”yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi mezon hisoblanadi;

- barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarini yaxlit, o’zaro bog’liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi;

- ”yashil iqtisodiyot”ga o’tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi xususiyatlariga bevosita bog’liq holda sodir bo’ladi.

Xulosa

Mamlakatning 2030-yiligacha bo’lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta’minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o’zaro muvofiqlashtirish talab etadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrda tasdiqlangan ”2019-2030-yillarda O’zbekiston Respublikasini ”yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasi” muhim dasturiy amal hisoblanadi. Barqaror rivojlanish degani, aholi ehtiyojlarini to’la qondirish bilan birga kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga qo’ymaslikka asoslangan rivojlanish tushuniladi. Yashil iqtisodiyot – bu tabiiy boyliklarga ta’sir qilmaydigan iqtisodiyot bo’lib resurslarni tejashni qo’llab-quvvatlaydi va tabiatga salbiy ta’sirini kamaytiradi. Barqaror rivojlanish maqsadlari har bir inson uchun farovon turmush tarzini yaratishga xizmat qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik ko’rsatkichlarini o’z ichiga oladi. Barqaror

rivojlanishni ta'minlashdagi "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash va investitsiyalar faolligini oshirish, atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiyasi sifatini yaxshilash hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi 754-X11-son qonuni
- 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralidagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarajatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni
- 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi – Toshkent "O'zbekiston", NMIU, 2019-64-b.
- 4) YASHIL TRANSPORT- BARQAROR RIVOJLANISHGA YO'L
Y.Shodimetov. D.Ayrapetov.